

UDK: 37.091: 378:17

OLIV TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING TARBIVAVIY JARAYONLARINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK-PROFILAKTIK AHAMIYATI

X.T.Siddikov – o'qituvchi

Urganch davlat universiteti

Tayanch so'zlar: pedagogik faoliyat, ijodiy qobiliyat, nazariy bilimlar, uzluksiz ta'lim, tafakkur, xayolparastlik, fantastika, komponent, malakaviy amaliyot.

Ключевые слова: педагогическая деятельность, творческая способность, теоретические знания, непрерывное образование, мышление, воображение, квалификационная практика.

Key words: pedagogical activity, creative ability, theoretical knowledge, continuous education, thinking, imagination, qualification practice.

Mustaqil Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga, zamon talablari bilan uyg'unlashtirilgan, jahon andozalari darajasiga mos "milliy model"ni hayotga tatbiq qilishga, ma'naviyatimizni yanada yuksaltirishga qaratilgan. Bu esa o'z navbatida talabalarining umumpedagogik bilim darajasini kengaytirishni, ma'naviy va intellektual meroslarimizga to'g'ri munosabatda bo'lishni talab qiladi. Ma'lumki, bugungi kunda pedagogikani insonparvar pedagogikaga aylantirish ta'lim sohasining muhim masalasiga aylanib qoldi. Shuning uchun ham ta'limni insonparvarlashtirish orqali yuzaga kelgan mavjud muammolarni oqilona hal etib borish yangicha ishlashni, yangi pedagogik tafakkurni shakllantirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yana bir muammoni hal etish o'ta muhim hisoblanadi: bu pedagog va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur",- degan fikrlari katta ahamiyat kasb etadi [1:45]. O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim bilan birgalikda tarbiya tizimini isloh qilish, kelajakda o'qituvchilik kasbini egallaydigan yangi avlodni yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy faollik, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil qatnasha olish qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Mazkur vazifalarni bajarishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati o'ta salmoqlikdir. Ijtimoiy hayotdagi mafkuraviy jarayonlar pedagogik voqelikni aks ettiradigan ta'limiy faoliyat loyihalarini asoslaydigan fan sohasi, tasavvurlarini qamrab olmasdan iloji yo'q. Oliv ta'lim tizimida ham talabalarda tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishda yangi pedagogik jarayonlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi davrda Respublikamizning barcha ta'lim muassasalarida tarbiya jarayoniga bo'lgan alohida e'tiborni vo'lega qo'vilganligi pedagog xodimlarning vanada mas'uliyatini oshiradi. Oliv ta'lim tizimida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash ikki komponentdan iborat bo'lib, bu nazariy bilimlarni egallash va malakaviy (pedagogik) amaliyotdan iboratdir. Bu aniq reja bo'lib, har ikki bosqich o'ziga xos xususiyatga ega, va'ni nazariy bilimlar egallab bo'lingach, amaliyotni o'tavdi.

Pedagogik jarayon - bu ma'lum maqsadga erishishga qaratilgan va vaziyatni oldindan rejalashtirgan o'zgarishlarga, o'qituvchilarning xususiyatlarini va fazilatlarini o'zgartirishga olib keladigan tarbiyachilar va bolalarning rivojlanayotgan o'zaro ta'siri. Boshqacha qilib avtqanda, pedagogik jarayon ijtimoiv tajribaning shaxsiy xususiyatga aylanishi jarayonidir.

Ta'limning hozirgi bosqichida talabalarining o'zini-o'zi boshqarishi va uning tadqiqotga aloqadorligi, birinchidan, zamonaviy jamiyatda o'zini-o'zi boshqarish maktabidan o'tgan yuqori malakali mutaxassislarini doimiy ravishda ko'paytirishga obvektiv ehtivoi borligi bilan belgilanadi. Ikkinchidan, oliv o'quv vurtlarining bitiruvchilarini jamiyatga muvaffaqiyatli moslashtirish va jamiyatga integratsivalashuviga yo'naltirilgan ijtimoiv funksiyalarining ahamiyati ortib bormoqda. Uchinchidan,

voshlar jamiyat taraqqiyyotining innovatsion salohiyatining xolisona tashuvchisi bo'lib, bu ularning universitet hayotidagi faol ishtirokida to'liq namovon bo'ladi. Bugungi kunda talaba voshlar yuqori kasbiy va shaxsiy madaniyatga ega. Talabalar iqtisodiy, sivosiy, ijtimoiv va madaniy xarakterdagi muammolarni hal qilishda qonun chiqaruvchi va iiro etuvchi hokimiyatlarning haqiqiy hamkori sifatida harakat qilish istagi va zarur bilimlariga ega. Talabalarining o'zini o'zi boshqarish muammolarini rivojlantirishning ahamiyati oliv o'quv vurtlarida talabalar bilan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ahamiyati ortishi bilan ham belgilanadi, buning samaradorligi universitet faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Birinchii pedagogik talablardan biri talabaning individualligini hech qanday tarzda bo'g'ib tashlamaslikdir. Ko'pincha pedagogik vaziyatlar mavjud bo'lib, talabalar taxmin yoki faraz qilgan holda ularni mantiqiy asoslab bera olmaydi. Shunga qaramay, ularni sezgi ishlatishga urinishlari uchun rag'batlantirish va ilgari surilgan g'oyani keyingi mantiqiy tahlil qilishga yuborish kerak.

Talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ularda o'z qobiliyatiga bo'lgan ishonchni, ijodiy muammolarni hal etish qobiliyatiga ishonchni shakllantirish kerak. O'ziga ishonmaydiganlar allaqachon muvaffaqiyatsizlikka mahkum. Albatta, bu ishonch oqlanishi kerak.

Shuningdek, talabalarining maqsad, vazifalar va ularni hal qilish vositalarini mustaqil tanlashga intilishlarini har tomonlama rag'batlantirish kerak. Mustaqil harakat qilishga, qabul qilingan qaror uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga odatlanmagan odam ijodiy faoliyat qobiliyatini yo'qotadi.

"Diagnostika" (tashxislash) tushunchasi yunon tilidan tarjima qilinganda lug'aviy jihatdan "bilish", "aniqlash", nazariy jihatdan esa "aniqlashga qodirlik", "aniqlashga imkon berish" ma'nolarini anglatadi [2:283].

Xavfli muammolarni hal qilishga moyillik juda keng doirada rag'batlantirilishi kerak. Talabalar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish lozim, sababi talabalarda o'smirlikning o'tish davrida his-tuyg'u kuchli bo'ladi. Bunday paytda his-tuyg'ularni to'g'ri yo'naltirish, qiziqishlarini aniqlash maqsadida anketa so'rovnomalari o'tkazish, malakali psixologlar bilan uchrashuvlar, treninglar o'tkazish maqsadga muvofiq. Xavf guruhiga kiruvchi talabalar bilan ishlashda juda ehtiyotkor bo'lish lozim. Ularga yuqoridan buyruq berib emas, yaqin do'st, sirdosh sifatida muomala qilinsa ulardagi yashirin qobiliyatlarni aniqlash, to'g'ri yo'lgasolish imkoniyati yuzaga keladi.

Talabalar tarbiyasiga oid profilaktik tadbirlarga yo'naltirishda talabalarda tasavvurni rivojlantirish va xayolparastlikka moyillikni bostirmang, garchi u ba'zan fantastikani haqiqat sifatida qabul qilish bilan chegaralanib qolsa ham. Bu, ayniqsa, mashg'ulotlarning dastlabki bosqichlariga to'g'ri keladi.

Talabalar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning eng muhim sharti pedagog bilan birgalikda tadqiqot faoliyatini amalga oshirishdir. Bu muammo yechilgandagina natijador bo'ladi, uning javobini talaba ham, o'qituvchi ham bilmaydi. Bu borada darsdan tashqari paytda ijodiy to'garaklar, "Zakovat", "Bilim-ring", "Teatr studiyasi", "Orasta qizlar" kabi loyihalar o'tkazish ham maqsadga muvofiq.

Ta'lim jarayonida talabalar bajaradigan asosiy funktsiyalar:

Talabalar ta'lim jarayonida bilim olish bilan birgalikda quyidagi bir qator funksiyalarni ham bajarishi lozim, chunki ta'lim va tarbiya uzviy ravishda olib borilmog'i shart.

- O'quv jarayonini individuallashtirish va farqlash;
- Xato diagnostikasi va teskari aloqa bilan monitoring qilish;
- Ta'lim faoliyatini o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini tuzatish;
- O'quv ma'lumotlarini modellash va o'rganilayotgan jarayonlar yoki hodisalarni taqlid qilish;

- Turli vaziyatlarda eng yaxshi qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish;
- Fikrlashning ma'lum bir turini rivojlantirish (masalan, vizual-majoziy, nazariy);
- O'rganish uchun motivatsiyani kuchaytirish;
- Maqsadli faoliyat madaniyatini shakllantirish va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalari talabalar tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishning pedagogik-profilaktik jarayonlarning ahamiyati katta bo'lib, bunda asosan talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish, ularning qiziqishidan kelib chiqqan holda to'garaklar, tanlovlar tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". – Toshkent: 2017, 45-b.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Gidrofiliya – Zebra / 3-tom. Tahrir hay'ati: M.Aminov va b. -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2002. 283-b.
3. Tarbiya hikmati: Ota-onalar uchun kitob. Komp. B.M.Bim-Bad, E.D.Dneprov, G.B.Kornetov. M: Pedagogika, 1989. 304-b. (Ota-onalar uchun).
4. Ismailova Z.K. Talabalarning kasbiy-pedagogik malakalarini shakllantirish. Ped. fan. nom. ... diss. -T.: O'MKHTRI. 2000.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasasi talabalar bilan tarbiyaviy-pedagogik jarayonlarni tashkil qilish, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan metodik ko'rsatmalarni shakllantirish, pedagoglar va talabalar o'rtasidagi nutqiy muammolarni bartaraf qilish usullari haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается организация воспитательно-педагогического процесса со студентами высших учебных заведений, формирование методических указаний воспитательного значения, пути преодоления речевых проблем между преподавателями и студентами.

SUMMARY

In this article, there are given the organization of the educational and pedagogical process with students of higher educational institutions, the formation of methodological guidelines of educational significance, ways to overcome speech problems between teachers and students.

БАДИЙ – ЭТИК МАТНЛАРНИНГ БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА КОММУНИКАТИВ-НУТҚ МАДАНИЯТЛАРИ РИВОЖЛАНИШИДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Х.М.Содиқов – доцент

Жиззах давлат педагогика институтини

Таянч сўзлар: ўқитувчи, ривожлантириш, ғоя, нутқ маданияти, фаолият, ахлоқ, ахборот, бадий матн, этик матн, меъёр, тафаккур.

Ключевые слова: учитель, развитие, идея, культура речи, деятельность, этика, информация художественный текст, этический текст, норма, мышление.

Key words: teacher, development, idea, speech culture, activity, ethics, information, literary text, ethical text, norm, thinking.

Шу нарсани билиб қўйиш мақсадга мувофиқки, бадий, - этик матнларни тўғри танлаш бўлажак ўқитувчиларда коммуникатив нутқ маданиятларининг ривожланишида муҳим аҳамиятга эгадир.

Бадий адабиёт бадий матнларда ифодаланишини эътиборга оладиган бўлсак бу тушунчага ҳам тўхталиб ўтишга тўғри келади.

Бадий матн – бу албатта бадий нутқнинг олий даражада акс эттирилган яқка тартибдаги асари ҳисобланиб, у шунга ўхшаш матнлар мажмуаси сифатида қаралади.

Этик матн тўғрисида гапирадиган бўлсак бу этик талабларга мос келадиган, ахлоқ меъёрларига жавоб берадиган ахлокий, маънавий ғояларни тарғиб қилишга йўналтирилган асар ҳисобланади.

Бадий - этик матнга тўхталадиган бўлсак – бу бадий нутқ акс эттирилган яқка тартибдаги асар саналиб, у этик талабларга мос келадиган, ахлоқ меъёрларига жавоб берадиган ахлокий, маънавий ғояларга бой ахборотларни яратиш, шунингдек буларни ўқувчиларга етказиш ва мавжуд ахборотларни сақлаш вазибаларини бажарувчи манба ҳисобланади.

Бадий асарлар мазмун ва қадриятнинг ягоналигини таҳлил қилишда талқин қилиш ва баҳолашни талаб этади. Бадий асарни идрок этиш мантикий тушуниришни ҳамда бадий ўхшатишларнинг бойлигини тушунишни тақозо этади. Бадий идрок психологияси гуманитар тафаккур билан боғлиқ жараён. У таълим олувчи онгида ҳосил бўлган маданиятни талаб этиши индивиднинг ҳаётий тажрибаси, маданий тайёргарлиги, унинг қайфияти ва

психологик ҳолатига боғлиқ. Идрок этиш таълим олувчининг умумий маданий тайёргарлиги ва эстетик тажрибасига, тилни билиш ва уни тушунишининг нозик жиҳатларига боғлиқ.

Бадий коммуникация бадий асар мазмунини тушуниш, тарих, ижтимоий воқелик, бадий маданият, ижтимоий фикр контекстида уни ўқиш орқали амалга оширилади. Биз биламизки бадий асар ҳақиқати, унинг ижтимоий аҳамияти, бўлажак ўқитувчиларнинг педагогик фаолиятида муҳим рол ўйнайди [1].

Бўлажак ўқитувчининг касбий компетентлигининг ҳосил бўлишига таъсир кўрсатувчи кўпгина методикалар орасида, энг мураккаб ва муҳимларидан бири нутқ материални танлаш ва ташкил этиш ҳисобланади. “Қандай ўқитишни аниқлаш учун, ўқитиш объекти нима ҳисобланиши тўғрисидаги масалани ҳал этиш зарур”.

Биз ўқиш тўғрисида ўқитиш воситаси сифатида гапирганимизда, коммуникатив-нутқ маданиятини ривожлантиришда кўргазмалли мустаҳкамлаш ва мазмунли асос сифатида матнлардан фойдаланишни назарда тутамиз. Ўқиш тўғрисида ўқитиш мақсади сифатида айтганда, уч босқичда ташкил этилган алоҳида ишлар тизими назарда тутилади:

1. Бошланғич босқич: ўқиш техникасининг шаклланиши.

Ўқиш техникаси деганда биз китобхонлар, ўқувчилар томонидан бадий матнларни ўқишда, унинг мазмунини етказиб бериш учун хизмат қиладиган зарурий воситаларнинг ўз ўрнида, талаб даражасида қўлланилишини тушунамиз.